



## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

**Mahmadullayeva Sevara Madamin qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika institute

E-mail: nuraliyevakmal613@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18384882>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 27-yanvar 2026 yil

### KEY WORDS

*mafkuraviy immunitet, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik jarayon, globallashuv, ma'naviy tarbiya, kasbiy kompetensiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda mafkuraviy immunitet tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilgan va uni rivojlantirishning dolzarbligi globallashuv sharoitida asoslab berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar va ta'limiy va tarbiyaviy yondashuvlar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tizimli, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni mafkuraviy immunitetni rivojlantirish samaradorligini yanada oshirishi isbotlangan*

Bugungi globallashuv jarayonida axborot maydonidagi o'zgarishlar tezlashmoqda, turli g'oya va qarashlar, mafkuraviy ta'irlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir etmoqda. Ushbu jarayonlarining jadallashuvi, axborot makonining kengayishi va turli mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi ta'lim tizimi va o'qituvchilar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy barqarorligi va mustahkam dunyoqarashga ega bo'lishi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar ongini sog'lom g'oya va qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi ma'naviy yetakchi va asosiy subyektdir.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish va jarayonni zamon talabiga mos takomillashtirish ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri bo'lib, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni takomillashtirish ilmiy asoslangan yondashuvlar, samarali metodlar va uzluksiz ta'lim tamoyillariga tayanishni talab etadi.

Mafkuraviy immunitet-bu insonlarning turli zararli, jamiyat barqarorligiga zid bo'lgan g'oyalarning ta'siriga tushib qolmasdan, ularni tahlil qila olishi va unga qarshi mustahkam fikr, javob qaytara olish qobiliyatidir.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mafkuraviy immunitet masalasi turli sohalarda: falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va pedagogika fanlarida turli jihatlarida o'rganilgan. Tadqiqotlarda mafkuraviy immunitet shaxslarning yot g'oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat bildira olishi, mustaqil fikrlay olishi va milliy qadriyatlarga sodiqlik asosida shakllanishi ta'kidlanadi. Pedagogik tadqiqotlarda esa ushbu tushuncha ko'proq ta'lim-tarbiya sohasi va jarayonining natijaviy ko'rsatkichlari sifatida talqin etiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning amaliy va tajribaviy mexanizmlari yetarli darajada amalga oshirilmagan va tizimlashtirilmaganligi aniqlanadi. Bu holat esa mazkur yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, uzviy, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- munozaralar;
- so'rovnoma va suhbat;
- tajriba-sinov ishlari;
- guruhli ishlanmalar
- natijalarni taqqoslash va umumlashtirish.

Mazkur metodlar bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonining holatini aniqlash, uning mohiyatini chuqur anglash va uni takomillashtirish yo'llarini belgilash imkonini berdi.

### **Natijalar.**

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayoni quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida samarali kechishi aniqlandi:

- ta'lim tizimi mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish;
- tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish;
- ijtimoiy-ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish;
- o'qituvchilik faoliyatining ijtimoiy mas'uliyatini anglashga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish.

Tajriba-sinov ishlari davomida mazkur shart-sharoitlar va yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy barqarorligi va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirganligi kuzatildi.

### **Muhokama**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish faqatgina bir yoki ikki martalik tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ushbu jarayon uzluksiz, davomli, tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, axborotlarni tanqidiy tahlil qila olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, uni doimiy birlikda olib borish mafkuraviy immunitetning mustahkam shakllanishiga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, innovatsion, integratsion metodlardan foydalanish va ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhimligi aniqlandi. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonida kasbiy va mafkuraviy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.
2. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." *Thematics Journal of Social Sciences* 7 (2021).
3. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).
4. Хомидов, Хусниддин, and Моҳинур Собирова. "ПЕДАГОГЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.10 (2024): 24-27.
5. Kupaysinovich, Homidov Husniddin. "Theoretical Foundations of Working with Educational Information Competencies." *Journal of Preschool Education and Psychology Research* 1.2 (2024): 3-4.
6. Хомидов, Хусниддин, and Моҳинур Умирова. "ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ." *Международная конференция академических наук*. Vol. 3. No. 12. 2024.
7. Homidov, H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.
8. Купайсинович, Хомидов Хусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021* 1: 561.
9. Tursunova, Marjona, and Husniddin Homidov. "TECHNOLOGIES OF USING THE ORAL CREATION OF THE TURKISH PEOPLE IN THE SPIRITUAL ETHICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS." *TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA*